

**SIROJIDDIN SIDQIY XONDAYLIQIYNING “RUSIYA INQILOBI”
DOSTONIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI TASVIRI**

Tursunova Mahbuba Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Bu maqolada Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy shaxsiyati va uning “Rusiya inqilobi” dostonida aks etgan davr voqeliklarining ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’siri, shuningdek dostonidagi tarixiy shaxslar obrazi tasviri ochib berishga harakat qilindi

Kalit so’zlar: Jadid, jaded adabiyoti, shoir shaxsiyati, lirika, ijtimoiy-siyosiy hayot, doston g’oyasi, badiiylik, reallik, shakl va mazmun, badiiy obrazlar, badiiy va ijtimoiy talqin.

ABSTRACT

In this article, you will get acquainted with the personality of Sidqiy Khandaylikiy and the impact of the events of the period reflected in his epic “Russiya inqilobi” on socio-political life.

Keywords: Poet’s personality, modern literature, socio-political life, lyrics, romantic poems, humor, epic, genres, “Rusiya Inqilobi”, artistry, reality, form and content.

Maqolaning asosiy qismiga kirishdan avval Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy shaxsiyati, hayoti va ijodi haqida tanishtirishni joiz topdik. O’ylaymanki, bugungi zamon yoshlari bu ijodkorning ijodi, asarlari va adabiyotimiz tarixida o’chmas iz qoldirishiga sabab bo’lgan o’tkir qalam sohibi, zamonasining jasoratli va shijotli kishilaridan bo’lganligi haqidagi qimmatli ma’lumotlar bilan tanish emas. Zero har bir izlanuvchi, adabiyot ixlosmandlarigina emas, balki bugungi o’zbek xalqi uchun Sidqiy asarlari o’rnak maktabi bo’la oladi. Yurtimizning eng qiyin davrlarida, Vatanimiz sarhadlarini rus mustamlakalari egallab olib, o’zbek xalqini nafaqat yerlarimizdan balki o’zligimizdan, tilimiz, dinimiz, urf-odat, milliyligimizdan mahrum qilib, butunlay qaram qilishni maqsad qilgan istelochilarga qarshi ham jismonan ham ma’nan kurashgan Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulhamid Cho’lpon, Abdulla Avloniy, Siddiqiy Ajziy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li, Muhammadsharif So’fizoda, Miskin, Tavallo singari bir qator ijodkorlar qatorida Sidqiy Xondayliqiy ham bor edi. Yuqorida nomlari keltirilgan shaxslardan ma’lumki so’z jadid adabiyoti haqida bormoqda. Adabiyot hamma vaqt o’zida davr voqeliklarini namoyish etadi. Abdulla Avloniy bir

she'rida "Oynayi har millat erur til, adabiyot" deb yozgan edi. Haqiqatda ham jamiyatni tarbiyalovchi buyuk muallim, o'tmishni so'zlovchi tarixchi, xalqning ravnaq topishi, o'zligini anglashida ulkan hissa qo'shuvchi vosita bu-Adabiyotdir. Mazkur davrning ijtimoiy-siyosiy voqeliklaridan kelib chiqqan holda Sidqiy va uning yelkadoshlari bo'lgan jadidlar adabiyotning bu ulkan qudratini to'g'ri anglay olganlar.

Atoqli adibimiz Oybek "Ulug' yo'l" romanida Sirojiddin Sidqiyni shunday ta'riflagan edi: "Shoir Sidqiy maxsum Iskandardan. Kambag'al oilada tug'ilib o'sgan, qattiqchilikda qiynalib o'qigan, keyin madrasaga joylashgan, Ko'p xor-u zorlik bilan madrasani tugatgan, Iskandarga qaytmasdan shaharda qolgan. Nazmda xiyla kalomi o'tkir, hozirjavob, shoir edi. O'rta bo'yli, muloyim ifodali, yuzlari burishiq, faqirona kiyingan, xushfe'l, xushmuomala kishi edi"

Sirojiddin Sidqiy 1884-yilda tug'ildi. Otasi Mirzo hidoxun "ohund" deb nomlanishidan o'qimishli kishilardan bo'lgan. Shoir o'z "padari buzrukvor" ining "kamdastroq", "bechoraxolroq" bo'lganligidan " xizmatkorlarga osh tashib, otu ulog' boqib ro'zg'or tebratganini ma'lum qiladi.

Ehtimolki, otasining yaqindan yordami bilan 6 yoshlarida Sirojiddinning savodi chiqadi. Xati ravon bo'lib, qisqa vaqt ichida tengdoshlari orasida ko'zga tashlanib qoladi.

1903-yilda o'qishini davom ettirish niyatida Toshkentga keladi. Kesakqo'rg'on mahallasidagi Madrasai Rahmatullohda Shomuhiddin ohund qo'lida arab tili sarf u nahv ni o'rganadi. Xattotlikka ko'ngil qo'yib, zamonasining mashhur qilqalami Toshkentning Arpapoya mahallasida istiqomat qiluvchi Muhammad Shohmurod kotib (1850-1922) ga shogird tushadi. So'ngroq Farg'ona vodiysiga borib, "mashhuri davron" Mirzo Xoshim Xo'jandiydan suls, ta'luq, ruq'a, yoqutiy, ubaydiy, loxuriy kabi xatlarni o'rganadi va uning "tarbiya mushfiqonasi, marhamati padaronasi soyai himoyasida... g'urbat yurtida" shuhrat qozonadi. Ayni paytda she'r mashq qila boshladi. Tarjima bilan shug'ullandi. Keksa maorifchi, shoir va jurnalist Mo'minjon Muhammadjonov (1883-1964) o'zining "Toshkentlik va Toshkentda bo'lgan o'zbek shoirlarining tarjimai hollari" qo'lyozmasida ma'lum qilinishicha, tabiatan g'oyat zakiy bo'lgan bu shoir Mulla Qishoq Miskin (1880-1937) bilan ham inoq edi. Ular birgalikda "Ko'kaldosh" madrasasida Akmaljon domladan dars olganlar. So'ng Sidqiy "Beklarbegi" da Abdulmalikxoji ohund qo'lida o'qigan. "Ko'kaldosh" da Sidqiy va Miskin lar bilan ayni bir vaqtda shoir Xislat (1882-1945) ham o'qigan. Sidqiy o'z tarjimai holida Xislatning nomini alohida ehtirom bilan tilga oladi, undan she'r ilmini o'rganganligini aytadi. Sidqiyning shoir sifatida shakllanishida Karimbek Kamiy (1865-1922) ning xizmati katta bo'ladi. "Beklarbegi" madrasasi xujrasida faqirona hayot kechirgan, Toshkentdagi 7 mashhur bedilxondan biri sifatida e'tirof etilgan bu nozikta'b shoir ko'plab yoshlarga ustozlik qilgan. Goh "Ko'kaldosh" da, goh "Beklarbegi" da she'rxonliklar tez-tez bo'lib turgan. "Beklarbegi" dan mulla To'lagan-Tavallo (1883-1937), Mo'minjon-Toshqin, "Ko'kaldosh" dan Sidqiy, Miskin, Xislatlar bu mushooralarning faollari edilaer.

Bu suhbatlarda she'r ilmi bilan bog'liq masalalar ham o'rtaga tushar edi. Sidqiy "avzon" (aruz vazni ko'zda tutiladi), "saj"(qogiyali nasr), qofiya kabilarni shu davralardan o'rganganligini aytib o'tadi va yuqoridagilar bilan bir qatorda G'azanfar, Munis, Xayoliy, Iffat Bog'istoniy, Rizoiy Andijoniy, mashhur Muxyi Huqandiy, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Gu'rbatiy Turkistoniy, Abdulqodir Qoshg'ariy kabi "fusaho ro'zg'or va adibi balog'at shior" lar nomini tilga oladi.

Sidqiy asarlari janr xususiyatidan juda ko'p shakllarda bitilgan .Jumladan lirik g'azallar,musaddas,muvashshax,Muqiyimiy,Furqat g'azallariga muxammaslar ham yozgan.Bulardan tashqari zamonasining battol shaxslari va voqealarini qalamga olin bir necha hajviyalar ham bizga serqirra ijodkordan meros bo'lib qolgan.Sidqiy liro-epik turda "Rusiya inqilobi"nomli doston ham yozgan. 1916-yilgi mardikorlik voqealari Turkiston ahlining ijtimoiy-siyosiy hayotigagina ta'sir qilib qolmay,balki ma'naviy-madaniy turmushida ham ayanchli iz qoldirgani haqida aynan shu dostonuida maxsus bob kiritgan edi.Bundan tashqari ush bu doston orqali mustamlaka siyosatining adolatsizlik asosiga qurilganligi,hukmdor va uning oila a'zolari davlat boshqaruviga loyiq emasligi,chunki shoh xotinining shaxvatga moyilligi,axloqan tubanlashib ketganligi ham ro'y-rost tasvirlangan.

Ijodkor so'zining avvalidayoq fevral inqilobi ortidan mustabid tizim ketib mustaqillik kelishiga ishonganligini bayon etadi

Ki eski hukumat zamoni aro

Yo'q erdi bu xil jur'at etmak mango

Alar aslida jur'at etsam agar,

Yopar erdilar turmag'a sarbasar

Churutqoy erdilar vujudim,bale

Uzulg'oy edi toru pudum,bale

Birinchi bobda izchillik bilan fevral inqilobi voqealarini aks ettiradi.Inqilob hodisalari kunma-kun beriladi.Har bir kunning eng muhim voqealari tilga olinadi.Erk va ozodlik,insoniylik qadrini talab qilib chiqqan oddiy xalq,begunoh insonlar shavqatsizlarcha o'qqa tutilishi shoirda g'amgin kayfiyat paydo qiladi.

Qo'zg'alongning boshlanishi va sababi asarni o'qirkansiz kunday ravshanlashadi.Xalq- och. Ochlik sabab qari-yu yosh,xotin-u qizlar ko'chani to'ldirishgani,hamma birgalikda "non,ey-voy,non!deb dod solishgani tasviri keltirilgan.

"Vazirlarning qamaluv"nomli bobda esa xalq qo'zg'aloni natijasida amaldorlar zo'rg'a qochib jon saqlash uchun o'zlari qamoqni avzal ko'rganligi aks ettirilgan.

Tijorat vaziri Kenoz Shaxovski,Suxo'mlinef,Maqoref,Dobrovolskiy,Pro'tapo'po'flarning vazifalaridan olinishi ,podshohning taxtdan tushishi va yangi podshohning hokimyatga kelishini "Yangi rusiya-yangi hayot"deb nomlaydi.Quyida keltirilgan jumalardan ham sodda xalqning yangi hukumat,yangi podshohga nechog'lik ishonganligi,umid bog'laganligiga guvoh bo'lamiz.

Ki bo'ldi hurriyat zamoni bu kun,

Tirildi hama jismu joni bu kun.

Yo'q o'ldi aromizda zulmu sitam,

Sitam ahlining bo'ldi ilgi qalam.

Ushbu jumalalar orqali shoir inqilobga va uning natijasida kelajak hurriyatga,ozodlig-u farovon hayotga nafaqat butun xalq,balki qalam ahli ham shubhasiz ishonganligini bayon etgan.

Asarni o'qib borarkansiz keying boblarda ijodkor hurriyatga erishish yo'lida qurbon bo'lgan oddiy xalq vakillarini "Maqbul qurbonlar"deb atalmish bobda atroflicha ta'rifkaydi.Bu bobning asosiy qahramonlari oddiy xalq bo'lib,ozodlik,hurlikka erishish uchun to'kilgan qonlarning misilsiz edi.

Xo'sh maqbul qurnonlar kimlar edi? Albatta, barcha davrlardagi, barcha tuzumlardagi singari eziluvchi, kamsitiluvchi, bor budidan ayriluvchi xalq edi. Bu bob orqali mustamlaka hukumat aholining 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarini mardikorlikka olish haqidagi farmoni va uning qay tarzda ijro etilganligining ham guvohi bo'lasiz. Turkiston elining boshiga bor kulfatlarni solgan farmonlar, qarorlar va buyruqlarni beruvchilar kimlar edi? Mustabid hukumat va bu hukumatning gumashtalari edi. Mustabid hukumat kimlar ekanligi biz o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum, lekin hukumat gumashtalari aslida kimlardan iborat edi. Ular pul, mansab, jonini, oilasini saqlab qolish uchun o'z millatidan, ozodligi, hurriyatidan kechgan, mustamlaka hukumat vakillariga yalto'qlanib, o'zlarini vaxshilikda ular bilan tenglashtirgan, balki bu borada ularlardan ham o'zib ketgan, o'zbeklar – "Mehrobdan chiqqan chayonlar" edi

Bu qirg'irlarda qaysi shaxs qayerda faoliyat olib borganligi ham batafsil berib borilgan. Chunonchi Kolkin, Kalisniko'f Toshkentda xaloyiqni ezganligini yozadi, adib. Machalo'f degan lanati bor edi, ani ko'rsa titrar edi Shosh eli deb ta'riflaydi.

Jizzax ahlidan so'z ochar ekan u yerda hukumdor edi Ivano'f. Uning boshchiligidagi rus askarlari o'zbek qizlarini badnom qilganligi, ko'ngliga nima sig'sa, hech ikkilanmay qilishganligi naqadar ayanchli tasvirlangan.

Hurriyatni yo'lida biz, musulmon,

Adadsiz fido ayladuk jismu jon.

Hurriyat uchun bizni qurbonimiz,

Ki bergan bergan o'shal kundagi qonimiz.

Asarning keyingi bobi "Rasputin ila maxlu podshoh xonimi" deb nomlanadi va bu bob mustabid hukumatning qanchalik chirkinligini yana bir bor ko'rsatib bergan.

Bor erdi Tobolskida bir mujik,

To'ng'uzdan ulug'roq, eshakdin kichik.

Edi nomi nopok anga Pasputin,

Aytay yaxshiroq, anglag'il qissasin.

Na ilmu na kasbu sinoat ango,

Sinoat edi katta olat ango.

Ushbu jumlar bilan boshlanuvchi bobda Rasputin ismli shaxs haqida so'z boradi. Pasputin axloqsiz, tubanlikda haddi a'losiga chiqqan munofiq kimsa. Unda na aql va na axloq bor edi. Lekin u kelishgan va juda xushbichim, har qanday ayol unga inon extiyorini aqlsizlarcha topshirishi insoniyatni jumbushga keltiradi.

Inqilob natijasida Rasputin va uning mashuqalarining sirlari ham ochilib qoldi. Rasputinning xonasi tintuv qilingan chog'da ko'plab sevgi nomalari orasida podshoh rafiqasining ham maktublari topiladi. Nomani o'qishganlarida oshkor bo'ladiki, Rasputin ila podshoh xonimi ishqiy munosabatda bo'lganligi, xonimning axloqsiz odatlari, butunlay shaxvatga oshno ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bu bobda ijodkor hukmdor oilasining naqadar tubanlashib, botqoqlikka botib borganligi, or-nomus, odob-axloq singari tushunchalar ular uchun yod narsalar bo'lgan oila vakillari uchun toj-u taxt qanchalik munosib bo'lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Sidqiy davrning ijtimoiy-siyosiy hayotiga befarq bo'la olmagan, xalqning nochor ahvoriga achingan va shu ruh bilan, shu shijoat bilan asarlar yozdi. Axir adabiyotning muhim xarater-xususiyati ham o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy hayotini qalamga tushurish. Agar adabiyot jonli zamon va insonlar ruhini gavdalandirmasa, u asl mohiyati yo'qotadi, menimcha.

Sidqiy Xondayliqiy asarlari janr jihatidan ko'lami keng qamrovli va barcha asarlarida o'z qalb tug'yonlarini gavdalandirishga harakat qilgan. Uning "Rusiya inqilobi" dostoni esa taqsinga sazovor. Chunki bu asar liro-epik turda yozilgan, adabiyotimiz tarixidagi eng qimmatli asarlardan biri desam, mubolag'a qilmagan bo'laman.

REFERENCES:

1. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, 403(1), 18-19.
2. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. Журнал филологических исследований, 1(2), 156-160.
3. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 756-759.
4. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. NeuroQuantology, 12(20), 1907-1913.
5. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, 10(12), 188-192.
6. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in переводческий дискурс: междисциплинарный подход (pp. 133-138).
7. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. Innovative engineering and management research, 10(01), 227-232.
8. Кадирова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. Современное образование и воспитание, 1(1), 289-294.
9. Kadirova, O. K. (2021). Comparative typological analysis of russian-uzbek literary relations in their historical development. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(12).